| | |
|---|---|
| 10 | **Fan/ modul uchun mas'ullar:**<br>Boltayeva B.I. – JDPU, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasi dotsenti, f.f.d (PhD) |
| 11 | **Taqrizchilar:**<br>Haydarov Sh. - Jizzax viloyati XTXQTMOHM O'zbek filologiyasi kafedrasi dotsenti, f.f.n.<br>G.Jumanazarova - JDPU, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasi prof. v.b., f.f.d (DSc). |



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

"Tasdiqlayman"
Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori prof. Sh.S.Sharipov
_______ 2022 yil "___" _______

**O'ZBEK VA JAHON ADABIYOTI FANI MASALALARI TADQIQI**
FANINING O'QUV DASTURI
(1-kurs)

**Bilim sohasi:** 100000 – Ta'lim
**Ta'lim sohasi:** 110000 – Ta'lim
**Mutaxassislik:** 5A 111701 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim)

**Jizzax– 2022**

| Fan/modul kodi 351O'JAFMTT08 | O'quv yili 2022-2023 | Semestr 1 | ECTS - Kreditlar 6 |
|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Tanlov fan | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 6 |

| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| | O'zbek va jahon adabiyoti fani masalalari tadqiqi | 90 | 90 | 180 |

**2.** **I. Fanning mazmuni**

Magistratura yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarga "O'zbek va jahon adabiyoti fani masalalari tadqiqi" fanining ilmiy-nazariy asoslari yuzasidan bilim beriladi, o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalari – shoir-yozuvchilar ijodi badiiy-estetik jihatdan tahlil etiladi.

**Fanning maqsadi:** O'zbek va jahon adabiyoti tarixining muhim poetik-estetik qirralarini mujassam qilgan adabiy asarlarni o'rganish orqali badiiy-falsafiy qarashlardagi nazariy-badiiy evolyutsiyani ko'rsatib berish hamda badiiy adabiyot va adabiy-nazariy tafakkur tadrijining shaxs va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini ochib berish, talabalarning adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish, ilmiy mushohadalarning vujudga kelishi hamda nazariy jihatdan tahlil qilish va talqin ko'nikmalarini hosil qilish, faol ijodkorlik ruhi va mas'uliyatini shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi:** O'zbek va jahon adabiyoti namunalarining o'ziga xos, milliy va umuminsoniy xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish asosida talabalarga bilim berish, talabalarga yuksak saviyada yaratilgan badiiy adabiyot namunalarining bashariyat, millat va jamiyat ravnaqidagi o'rni va ahamiyatini tushuntirish, talabalarda badiiy adabiyotni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish, talabalarda badiiy asarni idrok qilish hamda uni filologik nuqtai nazardan tahlil va tadqiq etish malakasini hosil qilish, talabalarga adabiyot va inson o'rtasidagi munosabatni badiiylik qonuniyatlari asosida tahlil qilishga o'rgatish,adabiyotda yangi shakllanayotgan va ommalashayotgan adabiy hamda ilmiy metod va yo'nalishlar mohiyatini jamoatchilik fikriga tayangan holda talabalarga yetkazish; jahon adabiyotidagi milliy va umuminsoniy adabiy-nazariy an'analarni jamiyat hayotiga tatbiq etish orqali talabaning adabiy-estetik didiini yuksaltirish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).**

**II.I. Ma'ruza mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

**Ma'ruza mashg'ulotlari**

**1-mavzu. O'zbek adabiyoti fan sifatida. Zamonaviy o'zbek adabiyotida realizm bosqichi (2-soat).**

Zamonaviy o'zbek adabiyoti ming yillik tarixiy davrni bosib o'tgan



mumtoz so'z san'atimizning davomi ekanligi, uning yangiligi XX asr o'zbek so'z san'ati dunyoviy adabiyot sifatida maydonga chiqishi, undan yangi janrlar va shakllar yuzaga kelishi, yangi tasvir uslubi va ijodiy metoddagi izlanishlar ko'rib o'tiladi. Zamonaviy o'zbek adabiyotini davrlashtirish muammolari va taraqqiyot bosqichlari masalasi yangi o'zbek adabiyotini o'rganishda ahamiyatga ega.

**2-mavzu. Hamid Olimjon ijodi** (2-soat).

Biografiyasi. Ilk ijodida uslubiy izlanishlari. H.Olimjon – ona yurt, tabiat, sevgi, baxt va shodlik kuychisi. Shoir she'riyatida Vatan obrazlari. "O'zbekiston" qasidasida ona yurtga bo'lgan muhabbat va faxr tuyg'ulari. H.Olimjonning urush davridagi ijodi.

**3-mavzu. Abdulla Qahhorning hikoyanavislik mahorati** (2-soat).

Yozuvchining hayot yo'li va ijodining boshlanishi haqida ma'lumot. Adib hikoyalarida realizm an'analari. "O'g'ri", "Dahshat", "Mayiz yemagan xotin" hikoyalarining tahlili. Abdulla Qahhor romannavis sifatida.

**4-mavzu. Zulfiya ijodiy faoliyati** (2-soat).

Hayoti va ijodi. Zulfiya she'riyatining yetakchi xususiyatlri. Shoira she'riyatida hijron motivi. Baxt va sevgi, g'am va hijron shoira lirikasining asosiy mavzusi ekanligi. "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush" tipidagi she'rlarda bosqinchilikka qarshi kurash motivlarining berilishi. "Mushoira" she'ri insoniy birdamlikning yuksak poetik ifodasi. "Quyoshli qalam" dostonida ustoz Oybek obrazining ma'naviy-ruhiy talqinidagi kashfiyotlar. "Xotiram siniqlari" dostonida shaxsiy-ruhiy kechinmlar ifodasi.

**5-mavzu. Erkin Vohidov poeziyasi** (2-soat).

Shoir biografiyasi va lirikasi. E.Vohidov dostonlari. "Ruhlar isyoni" dostoni tahlili.

**6-mavzu. Abdulla Oripov she'riyati va dostonlari** (2-soat).

Shoir biografiyasi va ijodining ilk boshlanishi. A.Oripov lirikasining asosiy xususiyatlari. "Jannatga yo'l", "Hakim va ajal", "Ranjkom" dostonlarining tahlili.

**7-mavzu. O'tkir Hoshimovning qissa va romanlari** (2-soat).

Adibning hayot yo'li, daslabki hikoya va qissalari. "Bahor qaytmaydi", "Dunyoning ishlari" qissalari yozuvchining jiddiy muvafaqqiyatlari ekanligi. "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" romanlarning tahlili.

**8-mavzu. Tog'ay Murod hayoti va ijodi** (2-soat).

Hayoti va ijodi. T.Murod ijodida milliy va mahalliy kalorit. Adib ijodida milliylikning o'ziga xos shaklda namoyon bo'lishi. Xarakter yaratishdagi o'ziga xosliklar. "Yulduzlar mangu yonadi", "Ot kishnagan oqshom" kabi qissalaridainson qalbi fojealarining haqqoniy tasviri. "Otamdan qolgan dalalar" – yaqin o'tmish haqidagi "hukmnoma". Dehqonqul – obrazi o'zbek nasrida yangi kashf etilgan obraz sifatida. Asarda syujet va kompozitsiya yaratishdagi yangilik.

1. XX asr boshlarida xalqimiz tarixida yangi davrning boshlanishi: ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy o'zgarishlar.
2.Yangi o'zbek adabiyotining tuzilishi, shakllanishi, rivoji, uning yangi deb atalishining o'ziga xos xususiyatlari.

**2 – amaliy: Hamid Olimjon lirikasi (2-soat).**

Reja:

1. Hamid Olimjon XX asr o'zbek poeziyasining yorqin siymolaridan biri
2. Hamid Olimjon lirikasida inson baxti masalasi qanday talqin etilgan?
3. Hamid Olimjonning qaysi asari dostonchilik sohasidagi eng jiddiy muvaffaqiyati hisoblanadi?

**3-amaliy: "Sarob" romanida shaxs fojeasining badiiy talqini (2-soat).**

Reja:

1. Abdulla Qahhorning "Sarob" romani tahlili.
2. Romanda davr ifodasi.

**4-amaliy: Zulfiyaning «Xotiram siniqlari»da shoira dardi ifodasi (lirik doston) (2-soat).**

Reja:

1. Shoira ijodida quyoshli, bahoriy kunlar.
2. Shoiraning "Xotiram siniqlari"da shoira dardi.

**5-amaliy: Said Ahmadning "Ufq" roman-trilogiyasi tahliliga bag'ishlangan bahs-munozara darsi (2-soat).**

Reja:

1. Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasining o'zbek romanchiligi rivojidagi o'rni.
2. Trilogiyada syujet va kompozisiyaning o'ziga xosligi, obrazlar tizimi.
3. Asardagi hayot haqiqati va badiiy haqiqat, asarda xalq hayoti burilish nuqtalarining badiiy talqini.
4. Asar qahramonlari Ikromjon, Tursunboy, Jannat xola taqdirida urush fojialarining aks etishi.
5. Qochoq obrazini yaratishda yozuvchi mahorati.

**6-amaliy: Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonini o'rganish (2-soat).**

Reja:

1. Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonida shoirning falsafiy qarashlari
2. "Ruhlar isyoni" dostoni hozirgi o'zbek poemachiligining go'zal fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan asar.

**7-amaliy: A.Oripov ijodi** (istiqlol she'riyati) **(2-soat).**

Reja:

1. Abdulla Oripovning "Sharof Rashidov xotirasiga" she'rini o'rganish.



2. "Jannatga yo'l" asarida diniy-falsafiy qarash va qahramonlar talqini.

**8-amaliy: O'tkir Hoshimov asarlarini o'rganish (2-soat).**

Reja:

1. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asari
2. "Ikki eshik orasi" asaridagi Robiya obrazi tahlili

**9 –amaliy: O'zbek hikoyachiligining badiiy tadrijida Shukur Xolmirzayev ijodining o'rni (2-soat).**

Reja:

1. Hikoyachilik janrining o'ziga xos xususiyatlari.
2. O'zbek realistik hikoyachiligining dastlabki namunalari.

**10 –amaliy: Tog'ay Murod asarlarida milliylik (2-soat).**

Reja:

1. Romanda zamon va davr qiyofasi.
2. «Otamdan qolgan dalalar» romanida muhim bir hayotiy va falsafiy haqiqatning badiiy aks ettirilishi.

**11-amaliy: Normurod Norqobilovning "Qoyalar ham yig'laydi" asari tahlili (2-soat).**

Reja:

1. Ernazar polvon bilan Sami cho'loq o'rtasidagi ziddiyat.
2. Tasvirida davr ifodasi va ma'naviyat (ma'naviy-axloqiy va fojiylikning badiiy ifodasi)

**12-amaliy: Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" asarini organish (2-soat).**

Reja:

1. Olam muammosi, uning voqea-hodisalari sababini his qilish.
2. Luqmon Bo'rixonning til xususiyatlari.

**13-amaliy: "Muvozanat" hamda "Sabo va Samandar" romanidagi obrazlar tahlili (2-soat).**

Reja:

1. Ulug'bek Hamdamning "Muvonazat" asari tahlili.
2. "Sabo va Samandar" romanida muhabbat tasviri.

**14-amaliy: Abu Abdulloh Rudakiy** (2-soat).

Reja:

1. Abu Abdulloh Ro`dakiy fors-tojik adabiyotining asoschilaridan biri.
2. "Qarilikdan shikoyat", "May onasi" qasidalari.

**15-amaliy: Maxtumquli hayoti va ijodi** (2-soat).

Reja:

1. Maxtumquli turkman mumtoz adabiyotining yirik vakili
2. Maxtumqulining ahloq-odob, nasihat tarzidagi she'rlari

**16-amaliy: Qozoq adabiyoti namoyondalari** (2-soat).

Reja:

1. O'ljas Sulaymonov hayoti va ijodi
2. O'ljas Sulaymonovning "Az I ya", "Arg'umoq" asarlari tahlili.

**17-amaliy: Chingiz Aytmatovning "Jamila" asaridagi inson tuyg'ulari** (2-soat).

Reja:

1. Chingiz Aytmatov asarlarining o'ziga xosligi.
2. "Jamila" asaridagi Jamila obrazi tahlili.

**18-amaliy: Qoraqalpoq adabiyoti:Berdaq ijodi**(2-soat).

Reja:

1. Qoraqalpoq adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Berdaqning "Xalq uchun" sh'eri tahlili.

**19-amaliy: Rasul Gamzatov ijodini o'rganish** (2-soat).

Reja:

1. Rasul Gamzatovning hayoti va ijodi.
2. "Ona tilim" she'rida vatanga muhabbat tuyg'usining aks etishi.

**20-amaliy: "Yevgeniy Onegin" asarini o'rganish** (2-soat).

Reja:

1. Pushkinning "Yevgeniy Onegin" asarini o'rganish va tahlil qilish.
2. Onegin va Tatyana Larina obrazlariga chizgilar.

**21-amaliy: "Hamlet" tragediyasini o'rganish**(2-soat).

Reja:

1. Shekspir ijodi bo'yicha kengroq ma'lumot beriladi.
2. Shekspir dramalari. "Hamlet" – Shekspir ijodining cho'qqisi.

**22-amaliy: G.Markes ijodida ramziylik (2-soat).**

Reja:

1. Adib asarlarida rang-baranglik, falsafiy fikrlar talqini
2. "Yolg'izlikning yuz yili" asari tahlili.

**23-amaliy: Daniel Defoning "Robinzon Kruzo" asarini o'rganish (2-soat).**

Reja:

1. Daniel Defoning hayoti va ijod yo'li.
2. "Robinzon Kruzo" romanning yaratilish tarixi va tahlili.



**24-amaliy: Paolo Koeloning "Alkimyogar" asari tahlili (2-soat).**

Reja:

1. "Alkimyogar" asarida qahramonlar talqini.
2. "Alkimyogar" asarida ramziy belgilar.

**25-amaliy: Jorj Oruellning "Molxona" asari tahlili (2-soat).**

Reja:

1. Nega dunyomiz shunday, aslida u qanday bo'lishi kerak?
2. "Molxona" asarida inson tasviri.

## IV. Mustaqil ta'lim bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (jami: 90 soat)

Talabalarning mustaqil ta'limi o'qituvchi rahbarligida quyidagi (O'RTMI-40 soat) va mustaqil tarzda (TMI-50 soat) shakllar orqali amalga oshiriladi. Berilgan mavzular yuzasidan talabalar ijodiy yondoshgan holda topshiriqlarni bajaradilar. Talaba mustaqil ta'limida (TMI-50 soat) o'qituvchi tomonidan hech qanday ko'rsatma berilmaydi va baholanmaydi, balki talabaning o'zi qiziqishlaridan kelib chiqib bu soatlarda kutubxonadan, internetdan va boshqa manbalardan mustaqil ravishda ma'lumot izlaydi, badiiy asarni o'qiydi va materiallarni o'rganadi, telegram guruhga yoki o'qituvchiga murojaat qiladi, o'rgatuvchi testlarni ishlaydi.

### IV.I. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romani haqida mulohazalar.(2 soat)
2. Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" asarini o'rganish. (2 soat)
3. Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" asarida hayot haqiqati. (2 soat)
4. Qo'chqor Norqobilning "Tog'dagi yolg'iz odam" asarini o'rganish. (2 soat)
5. Zulfiya Qurolboy qizi ijodini o'rganish. (2 soat)
6. N.Norqobilovning "Ovul oralagan bo'ri" qissasining o'ziga xos xususiyatlari. (2 soat)
7. I.Mirzo she'riyatida Vatan mavzusi (2 soat)
8. Muhammad Yusuf she'riyatida xalqchillik (2 soat)
9. Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon (2 soat)
10. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida lirik qahramon (2 soat)
11. Ulugbek Hamdamning "Sabo va Samandar" asari (2 soat)
12. "Alkimyogar" asarining g'oyaviy-badiiy qiymati (2 soat)
13. Shekspirning "Romeo va Julyetta" asari. (2 soat)
14. G.Markesning "Yolg'izlikning yuz yili" asari. (2 soat)
15. Gomerning «Iliada» dostoni (2 soat)
16. Rasul Gamzatov "Yuksak yulduzlar" she'ri (2 soat)
17. Pushkinning "Yevgeniy Onegin" asari (2 soat)
18. Nurillo Abbosxonning "Sho'rqishloq" romani (2 soat)

19. Abdulla Oripov ijodida oxirot va dunyo mavzusi (2 soat)
20. E.Vohidov asarlarida hurfikrlilik. (2 soat)

5. **V. Ta'lim natijalari**
**(Kasbiy kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Fan bo'yicha talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalariga quyidagi talablar qo'yiladi. ***Talaba:***

- O'zbek va jahon adabiyoti.va adabiy jarayonda yaratilgan eng yaxshi asarlarni ilg'ash, adiblar tomonidan yaratilgan asarlarning badiiy matnini tahlil qilish, badiiy asarga estetik baho bera olish, adabiy hodisalarni ilmiylik va mantiqiylik asosida o'rganish, badiiy tafakkur va estetik tasavvurning uyg'unligini ta'minlash, asar g'oyasi ustida ishlash haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;***

-Muayyan ta'lim jarayoni yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, hatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati va ulardan foydalanish, o'zbek va jahon adabiyoti va adabiy jarayonda yaratilgan eng yaxshi asarlarni o'rganish orqali mustaqil va zamonaviy fikrlash, kundalik faoliyatda badiiy-estetik madaniyatni yuksaltirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***

- Jahon va o'zbek adabiyotidagi milliy va umuminsoniy, adabiy-nazariy an'analarni jamiyat hayotiga tatbiq etish orqali talabaning adabiy-estetik didini, badiiy va ilmiy tafakkurini yuksaltirish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

6 **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- □ ma'ruzalar;
- □ SWOT-tahlil;
- □ seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- □ guruhlarda ishlash;
- □ taqdimotlarni qilish;
- □ individual loyihalar;

jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

7. **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. Mustaqil ta'limda fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi.

**Joriy nazorat.** Joriy nazorat semestr davomida amaliy va seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.

Jami amaliy va seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.



**Oraliq nazoratlar.** Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.

Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.

**Yakuniy nazorat**

Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.

8. **Rahbariy adabiyotlar:**


1. "Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi F-22-son farmoyishi. Toshkent sh., 2022-yil 3-fevral, F-22-son

**Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

2. Muhamedova S.X. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari. Toshkent. Excellent Polygraphy. O'quv qo'llanma. 2020. 264.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

3. Azim Suyun. O'zlik. – T.: Sharq, 1999
4. To'rayev D. Davr va ijod ma'suliyati. T.: Yangi asr avlodi, 2004
5. O'zbek modern she'riyati. – T.: Yangi asr avlodi, 2003
6. Rauf Parfi. So'nggi vido. – T.: O'zbekiston, 2006
7. Erkin A'zam. Shovqin. Roman. – T.: O'zbekiston, 2011
8. Omon Matjon. Xaloskor ruh. Badiha qissa. – T.: Ijod uyi, 2004
9. Sh.Xolmirzayev. Saylanma. 1 jild. – T.: Sharq, 2003
10. Erkin Vohidov. Saylanma. 3 jild. – T.: Sharq, 2000-2001
11. Abdulla Oripov. Saylanma. Tanlangan asarlar. 1-4 jildlar. – T.: Sharq,2000-2001
12. Isajon Sulton. Boqiy darbadar. Roman. Sharq yulduzi, 6-son,2010
13. Лев Толстой. Айна Каренина. Текст произведения. Источник: Л. Н. Толстой. Собрание сочинений в восьми томах. Т. 5,6. М., "Лексика", 1996.

**Axborot manbaalari**

14. www. jspu. uz
15. www. pedagog. uz
16. www. Ziyonet. uz
17. www. edu. uz


9 O'zbek va jahon adabiyoti fani masalalari tadqiqi fanining o'quv dasturi Jizzax davlat pedagogika universiteti Kengashining 2022 yil " " dagi -sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan.